

CHO‘L-YAYLOVLARDA YASHIL BIOMASSANI OSHIRISHDA TERESKEN O‘SIMLIGINING O‘RNI

Hasanov Otajon Murodovich

*Buxoro cho‘l-yaylov ozuqabop o‘simliklar urug‘chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi
direktori*

Ostonova Nasiba Xikmatovna

*Buxoro cho‘l-yaylov ozuqabop o‘simliklar urug‘chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi
katta ilmiy hodimi, BuxDU 2-kurs magistri*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada cho‘l hududlarida tuproq degradatsiyasi, shamol eroziyasi va yaylovlarning yem-xashak resurslari kamayishi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan tereskenning chuqur ildiz tizimi tuproqni mustahkamlashi, namlikni saqlashi va sho‘rlangan tuproqlarda ham barqaror o‘sishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *cho‘l, yaylov, teresken, yem-xashak, birlamchi urug‘chilik maydonlari.*

Аннотация: *В данной статье деградация почв, ветровая эрозия и сокращение кормовых ресурсов пастбищ в пустынных регионах рассматриваются как одни из наиболее актуальных проблем. В этом контексте обоснована роль терескена, обладающего глубокой корневой системой, которая способствует укреплению почвы, сохранению влаги и обеспечивает его устойчивый рост даже на засоленных почвах.*

Ключевые слова: *пустыня, пастбище, терескен, корм-сено, первичные семенные поля.*

Abstract: *In this article, soil degradation, wind erosion, and the reduction of forage resources in desert regions are considered among the most pressing problems. In this context, the role of teresken is substantiated, as its deep root system contributes to soil stabilization, moisture retention, and enables stable growth even on saline soils.*

Keywords: *desert, summer pasture, teresken, fodder and hay, primary seed fields.*

Kirish

Mamlakatimizda cho‘l yaylovlarining katta qismini qumli cho‘llar tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida o‘ziga xos bo‘lgan tuproq, iqlim va o‘simlik qoplaminining shakllanishini ta‘minlaydi. Qumli cho‘l yaylovlarining o‘simlik qoplaminini asosan efemer, efemeroidlar, psammofit buta va yarim butalar, sho‘rlangan substratlarda esa galofit o‘simlik turlari keng tarqalgan. Qumli cho‘l yaylovlarida buta, yarim buta va o‘tchil turlarning keng tarqalganligi boshqa ekologik tiplarga (adirlar, gipsli cho‘l va boshqa tiplar) nisbatan ustunligini, ya‘ni yilning istalgan mavsumlarida chorva hayvonlarini ozuqa bilan ta‘minlash imkonini beradi. Bu esa cho‘l yaylovlarining ahamiyatini yanada oshiradi [1].

Respublikamizda yaylov va pichanzorlarning umumiy maydoni 21,1 million gektarni yoki mamlakat yer maydonining 46,5 foizini tashkil etadi. Ammo keyingi 35-40 yil davomida ko‘chma chorvachilikda yaylovlardan me‘yordan ortiq foydalanish, chorva mollarni yaylovlarda ortiqcha boqish hamda boshqa antropogen ta‘sirilar natijasida chorva ozuqasi

hajmi kamayib, yaylov yerlari inqirozga yuz tutmoqda [2]. Shunday ekan yaylov yerlaridan iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularning tabiiy bioxilma-xilligini buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik, tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash, uni muhofaza qilish, atrof-muhitning ekologik holatini yaxshilash, qurg‘oqchilik jarayonlarini yumshatish, degradatsiya jarayonlarini oldini olish hamda qumli cho‘l yerlaridan oqilona foydalanish bo‘yicha bir qancha ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Teresken chorva mollari uchun yuqori ozuqabop o‘simlik hisoblanib, qurg‘oqchilik mintaqalarda, suv kam uchraydigan hududlarda o‘shishga moslashgan. Jahon miqyosida global isish ko‘pgina hududlar o‘simliklari qoplamini kamayishiga, qurib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan mamlakatimizning ham ayrim hududlariga bu o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Shuning uchun ham teresken o‘simligini endofit mikroorganizmlarini o‘rganish, ular ustida tadqiqotlar olib borish juda ham ahamiyatlidir

Teresken (*Ceratoides eversmanniana*) - sho‘radoshlar oilasiga mansub yarim buta, bo‘yi 1 metrgacha; ildiz tizimi kuchli rivojlangan. Barglari mayda, kuchli tuklangan. Gullari bir uyli, 3-8 donasi yaxlit gul to‘plam hosil qiladi. Gullash pallasining davomiyligi 25-45 kun; changlanishdan urug‘lari pishganga qadar davomiyligi 65-80 kun. Aksariyat urug‘lar oktyabrda pishib yetiladi, kechroq rivojlangan gullardan hosil bo‘lgan urug‘larning unib chiquvchanligi o‘ta past.

Ekologiyasi va areali. Teresken, qumlar, sho‘rxoklar, adirlarning shag‘alli soz tuproqlari, qurigan daryo o‘zanlari, bo‘z, qo‘ng‘ir-bo‘z tuproqlarda keng tarqalgan tur. Past tekisliklardan boshlab baland tog‘ tepalarigacha bo‘lgan maydonlarda uchraydi. Ekologik jihatdan qumli, kam sho‘rlangan tuproqlar, past tog‘liklar, soylar, qurigan daryo o‘zanlari, hatto Pomir tog‘larining shag‘al toshli-qumli tuproqlarida ham yaxshi o‘sadi. Uning areali ham anchagina keng. Qizilqum, Muyunqum, Badbaxtdala, Orol bo‘yi, Balxasholdi qumlaridan tortib Shimoliy-sharqiy Qozog‘istongacha tarqalgan. Xorijda Xitoy, harbiy Mo‘g‘uliston, Afg‘onistonda o‘sadi. Yakka holda o‘smasdan kam rivojlangan qumlar, qizilqumning yassi tog‘liklari, tog‘ etaklarida ilak, shuvoq, boyalich, izen, singren, chalavlar bilan aralash assotsiatsiyalar hosil qilib o‘sadi.

Fenologiyasi: fevral-martda qayta ko‘karadi, jadal rivojlanish davri aprel-may oylari; butonlarining rivojlanishi iyunning o‘rtalarida ko‘zga tashlanadi; gullashi iyulda kuzatiladi. Urug‘ hosil qilish pallasi 70-80 kun davom etadi, urug‘lari sentyabr-oktyabrda pishadi. Teresken asosan bahor, yoz, kuz oylari ko‘kat holida bo‘ladi.

Yaylovbopligi: cho‘l hududlari uchun to‘yimli ozuqa. Uning bir yillik novdalari, barglarini chorva mollari xush ko‘rib istemol qiladi. To‘yimliliigi: gullash davrida tayyorlangan pichani tarkibida 16% protein, 2,7% yog‘ va 34% kletchatka va boshqa foydali moddalar mavjud. 100 kg xashagining to‘yimliliigi o‘rtacha 40 ozuqa birligiga teng. Ekin sharoitida mart oyida ko‘karadi, aprel-iyun oylari jadal o‘sadi, sentyabr-oktyabrda maksimal hosil to‘playdi. Qumli, gipsli cho‘l yaylovlari holatini yaxshilovchi istiqbolli fitomeliiorant [3].

Yaylov yerlarimizda cho‘l ozuqa ekinlarining urug‘chiligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda yo‘lga qo‘yish, ilmiy salohiyatini tiklash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-martdagi “Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3603-sonli qaroriga asosan Buxoro cho‘l-yaylov ozuqabop

o‘simliklar urug‘chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi tashkil etilgan. Markaz asosan cho‘l hududlarda ozuqa ishlab chiqarishni intensivlashtirishning ilmiy va amaliy asoslarini yaratish, cho‘l ozuqabop o‘simliklarning istiqbolli navlarining birlamchi urug‘chiligini tashkil etish, cho‘l ozuqabop ekinlari urug‘lari yetishtiriladigan maydonlarda ilg‘or agrotexnik tadbirlarni joriy qilish, sifatli urug‘liklar bilan ta‘minlash va urug‘lik yetishtirish hajmini oshirish, yaylovlar tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda mos navlarni tanlash va ularni jadal ko‘paytirish, inqirozga uchragan yaylov maydonlarini aniqlash va ularni tiklash hamda hosildorligini oshirish uchun ozuqabop ekinlarni ekish ishlarini tashkil etish yo‘nalishlarida faoliyat yuritadi.

2018-2024-yillarda jami 15000 gektar birlamchi urug‘chilik maydonlari tashkil qilindi. Shuningdek, mavjud cho‘l-yaylov ozuqabop o‘simliklari urug‘chilik maydonlari hisobidan 15 turdagi (cherkez, bazamiq, izen, saksovul, kovrak, chog‘on, yantoq, qandim, donasho‘r, baliqko‘z, teresken, shuvoq, arpag‘on, qo‘ng‘irbosh) kabi o‘simliklarning urug‘laridan 50 tonna urug‘larning zahirasi yaratildi. Respublikamizning cho‘l hududlariga ekspeditsiyalar uyushtirilib, o‘rganish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu urug‘chilik maydonlaridan barcha turdagi o‘simliklarning urug‘lari inson omili ya‘ni qo‘l kuchi yordamida yig‘ib olinadi. Yig‘ilgan urug‘lar peshma-pesh yaylovdan foydalanuvchi qorako‘lchilik xo‘jaliklarga kelgusi yillardan boshlab reja asosida tarqatilib, degredatsiyaga uchragan yaylov maydonlari hosildorligini oshirish ishlari amalga oshirildi.

1-jadval

Buxoro cho‘l-yaylov urug‘chiligi ilmiy ishlab chiqarish markazi tomonidan etilgan tashkil etilgan birlamchi urug‘chilik bo‘limlarida teresken o‘simligi haqida ma‘lumot

№	Birlamchi urug‘chilik bo‘limlari	Teresken o‘simligi			
		2020 y ekilgan maydon, ga	Urug‘ sarfi, kg	2021 y ekilgan maydon, ga	Urug‘ sarfi, kg
1	Surxandaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani			22	100
2	Navoiy viloyati Qiziltepa tuman			24	100
3	Navoiy viloyati Konimex tuman	10	40		
4	Samarqand viloyati Nurobod tumani			9	38
5	Samarqand viloyati Qarnab ota tuman	5	20		
6	Qashqadaryo viloyati Muborak tuman	4	20		
	Jami:	19	80	80	338

Jadvalda ko’rsatilganidek, 2018-2024-yillar davomida markazimiz tomonidan urug’chilik uchastkalarimizda teresken o’simligi ekib kelinmoqda. Bu bilan bir qatorda cho’l-yaylovlarimiz florasi tiklanishida amaliy jihatdan yordam berilmoqda. Markaz tomonidan olib borilayotgan keng ko’lamli ishlar natijasida cho’llanish jarayonining kengayib borishining oldini olish va mamlakatda chorvachilik sohasini yanada rivojlantirish, avvalo, o’simlik qoplamini muhofaza qilish, turlar tarkibini saqlab qolish, almashlab (paddock usulida) yaylovlardan foydalanish tizimini joriy qilinmoqda.

Xulosa

Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarning samarali qo’llanilishi bugungi kunning dolzarb talabiga aylanishi lozim. Buning sababi, ekologik vaziyatda sodir bo’layotgan uzluksiz o’zgarishlar bilan bog’liq bo’lib, ular jumlasiga yog’ingarchilik miqdorining kamayishi, daryolardagi suv sathining pasayishi, o’rtacha havo haroratining oshishi, tabiiy muzliklarning erish jarayonlarining tezlashuvi, atmosferada turli zaharli gazlar konsentratsiyasining ortishi, maishiy chiqindilar hajmining ko’payishi, aholi sonining o’sishi hamda uy-joy va oziq-ovqatga bo’lgan talabning ortishi kiradi. Ushbu omillarning barchasi, avvalo, tabiiy resurslarga bo’lgan bosimni kuchaytiradi. Natijada, asosiy tabiiy boyliklarimizni muhofaza qilish va saqlab qolish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Nabiyeva G.M., Nurgaliyev N.A. Degradatsiyaga uchragan qumli cho’l tuproqlarining unumdorligini yaxshilash yo’llari // Cho’l chorvachiligi, ekologiyasi, yaylov agofitosenozi yaratishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand 2023.-B.245-247. 2. <https://kun.uz/news/2019/01/08/ozbekistonda-yaylov-maydonlarining-necha-foizi-inqirozga-uchragani-malum>. MASTERS SCIENTIFIC JOURNAL 27 June / 2025 /18– NUMBER 57

3. M. Maxmudov, Q. Haydarov “Yaylovshunoslik” darslik. Toshkent 2010 y. B-283.

3. GOST 17.4.3.01-83. Oxirana prirodi. Pochvi. Obshiy trebovaniya k otboru prob. M.: IPK izdatelstvo standartov, 2004. 4 s.

4. Ruzmetov M.I. Yaylovlar geobotanikasi O’quv qo’llanma. Toshkent: “Lesson Press” MCHJ nashriyoti, 2023. -157 b.

5. Rabbimov A. Cho’l yaylovlari hosildorligini oshirishning introduksiya va seleksiya asoslari. k-x. f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiya ishi avtoreferati. Toshkent, 2022. -66 b.

6. M.A. Yusupova, G.R. Sultonova. Markaziy Farg’ona qumli cho’l tuproqlari tavsifi // Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2022, P 94-98.

7. Nabiyeva G.M., Nurgaliyev N.A. Cho’l-yaylov o’simliklari bioxilmaxilligini oshirish istiqbollari // Turli tuproq-iqlim sharoitida qishloq xo’jalik mahsulotlarini yetishtirish va o’simliklarni himoya qilishda innovatsion yondashuvlar. mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman Buxoro, 2023. -B. 360-362.

8. Nurgaliyev N.A., Nabiyeva G.M. Degradatsiyaga uchragan qumli cho‘l tuproqlarining unumdorligini yaxshilash yo‘llari // Amaliy tavsiyanoma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. Toshkent 2024. -51 b.

9. Nurgaliyev N.A. Degradatsiyaga uchragan qumli cho‘l tuproqlarining holati va ularni yaxshilash yo‘llari (Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani To‘dako‘l massivi misolida) // Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)Toshkent-2024. -120 b.